



## IDEOGRAFIK LUG‘ATLARINING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI

Sog‘inboyeva Shahzoda

Namangan davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek lug‘atchiligida ideografik lug‘atlarning shakllanishi, nazariy asoslari va amaliy ahamiyati yoritilgan. Mahmud Zamaxshariy, Salohiddin Toshkandiy va Is’hoqxon Ibrat asarlarida ideografik yondashuvning ilk namunalari ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada ideografik lug‘atlarning boshqa lug‘atlardan farqli jihatlari, ularning tuzilish prinsiplari, deskriptor tushunchasi, tizimlilik tamoyili hamda sohalararo tezaurus lug‘atlarning yaratilish zarurati tahlil qilingan. Shuningdek, G‘arb va rus tilshunosligidagi ideografiya taraqqiyoti, M.P. Roge, F. Dornzayf, H. Kasarec, V.V. Morkovkin kabi olimlarning ilmiy qarashlari ham o‘zbek leksikografiyasi rivojiga ta’siri nuqtayi nazaridan o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbek lug‘atchiligi, ideografik lug‘at, tezaurus, deskriptor, leksikografiya, tizimlilik, semantik maydon, M.P. Roge, V.V. Morkovkin, Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev.

## THEORETICAL FOUNDATIONS AND SIGNIFICANCE OF IDEOGRAPHIC DICTIONARIES

Sog‘inboyeva Shahzoda

Student of Namangan State University

**Abstract:** This article explores the formation, theoretical foundations, and practical significance of ideographic dictionaries in Uzbek lexicography. It highlights the early examples of ideographic approaches found in the works of Mahmud Zamakhshari, Salohiddin Toshkandi, and Is’hoqxon Ibrat. The article analyzes the main differences between ideographic and traditional dictionaries, the principles of their structure, the concept of the descriptor, the principle of systematicity, and the necessity of creating interdisciplinary thesaurus dictionaries. Moreover, it examines the development of ideography in Western and Russian linguistics, particularly the scholarly contributions of M.P. Roget, F. Dornseiff, H. Casares, and V.V. Morkovkin, and their influence on the advancement of Uzbek lexicography.

**Keywords:** Uzbek lexicography, ideographic dictionary, thesaurus, descriptor, lexicography, systematicity, semantic field, M.P. Roget, V.V. Morkovkin, Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev.





O'zbek lug'atchiligida ideografik lug'atlarning ilk namunalari Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab», Salohiddin Toshkandiyning «Lug'oti salos»<sup>1</sup> Is'hoqxon Ibratning «Lug'ati sitta alsina» («Olti tilli lug'at») asarlari misolida kuzatiladi.

Ideografik lug'atlar boshqa lug'atlardan quyidagi jihatlari bilan farqlanib turadi:

1. Ideografik lug'at uchun alifbo tartibi qat'iy bo'lmaydi. Ularda tilning sistemaviy xarakteridan kelib chiqib, leksemalararo munosabat birinchi planga olinadi. Unda aniq bir mavzu (bosh so'z) ostida birlashgan so'zlar izohlanadi.

2. Ideografik lug'atlarning asosiy birligi leksema yoki atama emas, deskriptor bo'ladi.

Bu so'z borliqdagi biror narsani o'z nomi bilan atamay tavsig'lab berishga nisbatan ishlatiladi. Masalan, Alisher Navoiy – eski o'zbek adabiy tilining asoschisi.

3. Ideografik lug'atlar, birinchi navbatda, sistemaviylikka asoslanadi.

4. Ideografik lug'atlarda leksemalarni avtomatik ravishda ishlov berish, ularni kodlashtirish, maxsus dasturlar tuzib, sohalararo mashinaviy tilini yaratishga jiddiy e'tibor beriladi. Ideografik lug'atlar uchun maxsus lug'at maqolalari tuziladi. Ular ko'proq anketaviy xarakterga ega bo'lib, deskriptorlarning barcha sistemaviy munosabatlarini o'ziga qamrab oladi<sup>2</sup>.

Mustaqillik yillarida o'zbek leksikografiyasi qator yutuqlarni qo'lga kiritdi. Qisqa davr ichida katta ishlar amalga oshirildi, bir qator nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi<sup>4</sup>. Buning pirovard natijasida besh jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati» (2006-2008) yaratildi. Lug'atning yangi turlari nashr etildi, ularda xalqimizning boy ma'naviy xazinasini o'z o'rnini topdi, milliy qadriyatlarimizni ifodalovchi leksemalar o'zining haqiqiy bahosini oldi, shuningdek leksikografiyaga kompyuter lingvistikasi kirib keldi. Ammo o'zbek lug'atchiligini rivojlantirish va takomillashtirish yo'lida qilinishi kerak bo'lgan ishlar hali bisyor. O'zbek leksikografiyasi hanuzga qadar ideografik lug'atga ega emas. Demak, o'zbek lug'atchiligiga dunyo tilshunosligining eng yangi yutuqlarini, zudlik bilan tatbiq etish va amaliyotda bundan samarali foydalanish sira kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarimizdan biridir.

Ishning birinchi bobi «Ideografik lug'atlar tarixi va ideografiyaning nazariy asoslari» deb ataladi. Bobda ideografik lug'atlarning dunyo lug'atshunosligida tutgan o'rni, yaratilish tarixi o'rganildi. Ideografik lug'at va tezauruslarning o'xshash hamda

<sup>1</sup>Шарипов Ж. Из истории перевода в Узбекистане (дореволюционный период): Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 1968. – С.67-68.

<sup>2</sup>Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. доктори... дисс.– Тошкент, 2005. – Б.234-235.





farqli tomonlari yoritildi. A.Hojiyevning «Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati»da tezaurusga shunday izoh berilgan: «TEZAURUS (yun. thesauros - xazina) Tilga oid leksik tarkibni toʻla hajmda aks ettiruvchi lugʻat». «Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi»da: «IDEOGRAFIK LUGʻAT - lugʻat turi. <sup>3</sup>Bunday lugʻatlar alifbo tartibida emas, balki mavzu boʻyicha tuziladi», - deyilgan. Tezaurus atamasiga esa quyidagicha taʼrif beriladi: «TEZAURUS (yun. thesauros - xazina, boylik) - 1. Muayyan tildagi barcha soʻzlarni qamrab oladigan, ularning matnda qoʻllanish holatlarini toʻla- toʻkis aks ettiradigan lugʻat. 2. Biron-bir ilm-fan sohasiga oid lugʻaviy birliklar mavzu tartibida joylashtirilgan va ana shu birliklar oʻrtasidagi semantik (jins-tur, sinonimik va boshq.) munosabatlar aks ettirilgan lugʻat. Bunda soʻzlar alifbo tartibida emas, balki bir mavzu, bir tushunchaga aloqador soʻzlarning barchasi bir joyda beriladi; kerakli soʻz tushunchaga qarab qidiriladi».<sup>4</sup>

Mashhur rus tilshunosi L.V.Shcherba oʻzining lugʻatchilik nazariyasiga bagʻishlangan maqolasida tezaurus va ideografik (olim ularni ideologik deb atagan) lugʻatlarni lugʻatning alohida-alohida koʻrinishlari sifatida talqin qiladi. Olimning fikricha, tezaurusning oʻziga xos xususiyati shundaki, unda maʼlum tildagi soʻzlarning barchasi, eng kam qoʻllanadiganlari ham, hatto nutqda bir bora uchraganlari ham qayd etiladi. Oddiy (Yaʼni odatdagi) lugʻatlarni olim «fonetik soʻzlar roʻyxati» deya atagani holda, ideografik lugʻatlarga «soʻz-tushunchalar va ularning maʼnodoshlarining tartibli tizmasi» deb baho beradi.

Gʻarb ideografiyasi falsafiy, nazariy, amaliy kabi uch bosqichga ajratiladi. Falsafiy bosqich antik dunyo faylasuflari va Oʻrta asrlarda yashagan Yevropa olimlarining qarashlarini oʻz ichiga oladi. Nazariy bosqich Gʻarb uygʻonish davri bilan bogʻliq holda paydo boʻldi va rivoj topdi. Amaliy bosqich ingliz olimi M.P.Rojening 1852-yilda chop etilgan «Inglizcha soʻz va iboralar tezaurusi» bilan bevosita bogʻliq holda yuzaga kelib, F.Dornzayf, X.Kasares, H.Mayer, R.Xallig, V.Vartburg, Y.Karaulov, M.Morkovkin, O.Baranov kabi ingliz, ispan, nemis, fransuz, rus olimlari tomonidan davom ettirildi.

Rus olimi V.V.Morkovkin Rojening «Tezaurus»iga «jahon leksikografiyasidagi misli koʻrilmagan hodisa», - deb baho bergan edi. Olimning fikriga koʻra, ushbu kitob til leksikasining mantiqiy tartibga solingan maketini yaratish yoʻlidagi dastlabki ilmiy asoslangan urinish boʻlgan.<sup>5</sup>

<sup>3</sup> Shukurov O., Boymatova B. Oʻzbek tilining maʼnodosh soʻzlar oʻquv lugʻati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007-2009.

<sup>4</sup> Mengliyev B., Bahridinova B. Oʻzbek tilining soʻz tarkibi oʻquv lugʻati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. 104 b.

<sup>5</sup> Караулов Ю. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка. – Москва: Наука, 1981. –С. 148-166.



Ma'lumki, «bir sathga mansub bo'lgan, qiymat jihatidan bir xil til birliklarining ma'lum umumiy belgi asosida bir guruhga birlashuviga uyadoshlik munosabati deyiladi». Masalan, *nimrang, toifi, charos, husayni, chillaki, shakarangur, shivilgoni, doroyi, kishmish* kabi leksemalarning barchasi uchun umumiy bo'lgan belgi bu «uzum»lik belgisidir. Ular shu belgi asosida bitta semantik uyaga (paradigmaga) birlashadi. O'z navbatida *uzum* leksemasi *olma, nok, behi, gilos, olcha, shaftoli* kabi leksemalar qatorida «meva» uyasiga kiradi. Sistema tamoyiliga ko'ra «meva» «non», «qand-qurs», «poliz mahsulotlari» bilan birgalikda «yemish» (oziq-ovqat) mikromaydonini tashkil qiladi. Ikkinchi yo'nalish bo'yicha uzumning «tok» semasi hisobga olinadigan bo'lsa, u dastavval «mevali daraxt», so'ngra «mevasiz daraxt» va «manzarali daraxt»lar bilan bir qatorda «daraxtlar» mikromaydoniga mansub bo'ladi. Uchinchi tomondan «uzum» (tok) *novda, kurtak, barg, uzumzor, tokzor, tokqaychi, bog', bog'bon, ishkom, hosil, yemoq, mayiz, kesmoq, xomtok qilmoq* singari leksemalar bilan bir umumiy g'oya asosida birlashib, yagona semantik maydonni yuzaga keltiradi.<sup>6</sup>

Y.N.Karaulov semantik maydonlarning mavjudlik, uzviylik, butunlik, tarixiylik kabi to'rtta muhim belgisini ko'rsatgan. Olimning fikriga qo'shimcha ravishda ideografik lug'atlarni yaratishda asos vazifasini o'tovchi semantik maydonning milliyligi, makon va zamonga bog'liqligi haqidagi fikrlarni ham aytib o'tish darkor. Sababi o'zbek tilida qo'llanuvchi «uzum» (tok) semantik maydoni bilan boshqa tillarda qo'llanuvchi shunday maydon o'rtasida jiddiy farqlar bo'lishi mumkin. Masalan, ispan, italyan, gruzin kabi tillarda yuqoridagi maydon «vino» semasi bilan alohida paradigmatic qatorni tashkil etadi. O'zbek tilida ham bu kabi paradigmatic qator bor, lekin bu tillardagi kabi keng va faol emas. Bizdagi semantik maydonda uning «yemish» semasi bilan bog'liq so'zlar ko'proq yadro qismini tashkil etadi. F.Dornzayf, H.Mayer va X.Kasareslar o'zlarining ideografik tasniflarida aynan mana shu jihatlarni hisobga olishgan. Y.N.Karaulovning fikricha, bunday lug'atlar tilning lug'at tarkibini ixcham va ochiq tarzda ifodalaydi, leksik birliklarning semantik tarmoqlanishi hamda muayyan tushuncha maydonlarini hosil qilishi haqida aniq tasavvurlar beradi<sup>7</sup>. Ideografik (tezaurus) lug'atlar yaratishning nazariy hamda amaliy masalalariga ulkan hissa qo'shgan rus olimlaridan biri V.V.Morkovkinning tadqiqotlarida bu turdagi lug'atlar informatsion-qidiruv tizimining instrumenti sifatida talqin etiladi<sup>8</sup>.

<sup>6</sup> Хамраева Ё. Ўзбек тилининг идеографик луғатини тузиш тамойиллари (харакат ва ҳолат тушунчасини ифодаловчи сўзлар мисолида): филол. фанл. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.

<sup>7</sup> Караулов Ю. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка. – Москва: Наука, 1981. –С. 148-166.

<sup>8</sup> Морковкин В.В. Идеографические словари. – Москва: Русский язык, 1970.



S.E.Nikitaning ta'kidlashiga qaraganda, ideografik (tezaurus) lug'atlarni tuzishda quyidagilarni hisobga olish juda ham muhim:

1. Tadqiq etilayotgan sohaning mashnaviy tilini yaratish, shuningdek, uni avtomatik ravishda boshqarish uchun tezaurusning nechog'lik dolzarb ekanligini aniqlash. Sababi: bunday ideografik (tezaurus) lug'atdan barcha soha vakillari keng foydalanadilar.

2. Lug'atga kiritilayotgan leksik birliklar ko'lamiga alohida e'tibor berish lozim. Iloji boricha ko'proq ma'lumotlar qamrab olinishi zarur.

3. Tezaurus yaratilayotgan soha bo'yicha boshqa lug'atlarning bor yoki yo'q ekanligini hisobga olish darkor.

4. Matnga avtomatik ishlov berish yo'llarini qidirish, bajariladigan operatsiyalarni belgilash talab qilinadi<sup>9</sup>.

Ideografik (tezaurus) lug'atning yaratilajak quyidagi ikki turini alohida ko'rsatib o'tish lozim:

1. O'zbek tilining ideografik lug'ati. Bu lug'at o'zbek tilida ishlatiladigan yuz minglab so'zlarni o'z ichiga oladi va o'zining ulkan hajmi, ma'lumotlarning rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi.

2. Sohalararo tezaurus lug'atlar. Bunday lug'atlar muayyan sohalar bo'yicha yaratiladi va ularda shu sohada ishlatiladigan barcha leksik birliklar ideografik planda izohlanadi<sup>10</sup>. Hozirgi kunda ideografik lug'at yaratishning nazariy masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan<sup>11</sup> bir qator tadqiqotlar yuzaga kelmoqda.

Ideografik lug'atlar o'zbek lug'atchiligi uchun yangi, ammo istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Ular tilning semantik tizimini, leksik birliklar o'rtasidagi ichki aloqalarni aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mustaqillik davrida o'zbek leksikografiyasi katta yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, hali ideografik lug'at yaratilmagan. Shu bois, dunyo tilshunosligidagi ilg'or tajribalarni o'zlashtirish, o'zbek tilining ideografik va sohaga oid tezaurus lug'atlarini yaratish zaruriyati dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu ish o'zbek tili leksikasini chuqurroq o'rganish, milliy tildagi ma'no tizimini mukammal ifodalash hamda zamonaviy kompyuter lingvistikasiga asoslangan avtomatik tahlil tizimlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

<sup>9</sup>Никитина С.Е. Тезаурус по теоретической и прикладной лингвистике. – Москва: Наука, 1978. – С.10-11.

<sup>10</sup>Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. докт... дисс. – Тошкент, 2005. – Б.234.

<sup>11</sup> Ҳамраева Ё. Ўзбек тилининг идеографик луғатини тузиш тамойиллари (ҳаракат ва ҳолат тушунчасини ифодаловчи сўзлар мисолида): филол. фанл. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.



1. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Andijon, 2006
2. Никитина С.Е. Тезаурус по теоретической и прикладной лингвистике. – Москва: Наука, 1978. – С.10-11.
3. Ҳамраева Ё. Ўзбек тилининг идеографик луғатини тузиш тамойиллари (ҳаракат ва ҳолат тушунчасини ифодаловчи сўзлар мисолида): филол. фанл. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.
4. Караулов Ю. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка. – Москва: Наука, 1981. –С. 148-166.
5. Морковкин В.В. Идеографические словари. – Москва: Русский язык, 1970.
6. Shukurov O., Boymatova B. O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007-2009.
7. Mengliyev B., Bahriddinova B. O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. 104 b.
8. Шарипов Ж. Из истории перевода в Узбекистане (дореволюционный период): Автореф. дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 1968. – С.67-68.
9. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. доктори... дисс.– Тошкент, 2005. – Б.234-235.
10. Умаров Э. Мустақиллик ва мумтоз ўзбек тили // Til va adabiyot ta'limi, №11, 2011. – Б.14-17.

**Research Science and  
Innovation House**